NORDIK HAYOTI

15-16-qo‘shma fasl — 2026



Sun’iy intellekt va ta’lim

Xalqaro hamkorlik

Ilm, ma’rifat va innovatsiyalar

TasIMO–2026

NORDIK HAYOTI

Nordic life

Xalqaro Nordik universiteti rektori
Sherzod Mustafakulov tahriri ostida

Nashrga tayyorlaganlar:
M.Isaqova, M.Rahmonov



"Nordic Life" jurnalining **15–16-qo'shma** faslida Xalqaro Nordik universitetining 2026-yil – "Sifat va innovatsiyalar yili"da **yanvar-may** oylaridagi yangilanish va rivojlanish jarayonlari yoritilgan.

Mazkur sonda keng amaliy ishlar, talabalarning davlat stipendiyalari, xalqaro sertifikatlar va exchange dasturlaridagi yutuqlari, TasIMO olimpiadasi, ilmiy-amaliy konferensiyalar, Navoiyshunoslar forumi hamda Nordikda bilim, tashabbus va izlanish uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning amaliy ifodasi bo'lgan ko'plab natijalar yoritilgan.

Intilganga tole yor!

@nordic_edu

O‘zgarayotgan universitet portreti

Xalqaro Nordik universiteti uchun 2026-yilning ilk choragi katta yangilanish va izlanishlar davri bo‘ldi. **“Sifat va innovatsiyalar yili”** g‘oyasi ta’limdan tortib ilmiy faoliyat, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik, professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivoji va talabalar imkoniyatlarigacha bo‘lgan keng jarayonlarni qamrab oldi.

Yilning **yanvar–may** oylarida Nordikning rivojlanish maydonlari kengaydi. Yangi adabiyotlar va ilmiy manbalar yaratildi, professional rivojlanish dasturlari orqali yangi bilimlar olib kirildi. Malayziya va Xitoydagi tajriba almashinuvi professor-o‘qituvchilarning akademik imkoniyatlarini kengaytirdi.

Universitet xalqaro akademik makonda ham o‘z aloqalarini kengaytirdi. ETS bilan hamkorlik xalqaro sertifikatsiya va akademik mobillik uchun yangi imkoniyatlarni ochdi, Agenda Nexus Think Tank bilan aloqalar, diplomatik vakillar bilan uchrashuvlar esa universitetning xalqaro muloqot geografiyasi tobora kengayayotganidan dalolat berdi.

Natijalar ham e’tiborga molik. Webometrics reytingida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari orasida 50-o‘rin, xususiy oliygohlar orasida 1-o‘rin; UniRank reytingida esa O‘zbekistondagi TOP-20 va xususiy oliygohlar orasida 1-o‘rin qayd etilishi — universitetning raqamli va xalqaro ko‘rinishidagi o‘zgarishlarning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Biroq har qanday reytingdan ko‘ra, universitetning eng katta kapitali — **inson**.

Ikki iqtidorli talabaning davlat stipendiyasiga sazovor bo‘lishi, xalqaro sertifikatlar sohiblari safining kengayishi, besh nafar talabaning Malayziyada exchange student sifatida ta’lim olish imkoniyatini qo‘lga kiritishi — bilimga intilishning real natijalaridir. Professor O‘lmas Zoirovning Guinness World Records sertifikatiga ega bo‘lishi esa Nordik jamoasidagi individual muvaffaqiyatning qanday qilib butun universitet nomiga aylanishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, universitet hayoti faqat akademik natijalar bilan cheklanmaydi. Bayramlar, ma’naviy-ma’rifiy tashabbuslar, adabiy uchrashuvlar, Navoiyshunoslar forumi va jamoaviy tadbirlar Nordik oilasining ichki ruhini boyitdi. Chunki haqiqiy universitet — bilim beriladigan bino emas, **fikrlar uchrashadigan, qadriyatlar shakllanadigan va inson o‘z imkoniyatlarini kashf etadigan makondir**.

Mazkur son sahifalarida ana shu jarayonlarning izlari jamlangan.

Bu — bir necha oyning xronikasi emas. Bu — o‘zgarayotgan universitetning portreti.

Va bu portretning har bir chizig‘ida bir savol yashirin: **bugun yaratilayotgan imkoniyatlar ertangi kunning qanday natijalariga aylanadi?**

> **“Universitetning eng katta kapitali – inson”.**



RAQAMLI UNIVERSITET

sari dadil qadamlar

2026 – Xalqaro Nordik universitetida Raqamli universitet sari dadil qadamlar yili!

Global mehnat bozori uchun SI'dan foydalangan holda raqobatbardosh, innovatsion va mas'uliyatli kadrlar tayyorlash – yangi 2026-yildagi ustuvor maqsadimiz!

Aniq maqsadlar, katta marralar!

01

Bizni nimalar kutmoqda?

- **Rowan University** hamkorligida **Amerika ta’lim modeli**ni Nordik ta’lim tizimiga integratsiya qilish;
- barcha talabalar va xodimlar uchun ochiq manba kodli **Odoo biznes-model** kursini joriy etish;
- Data Science va Kompyuter injiniringi magistrlari ishlarini tatbiq etish uchun **IT hamjamiyati** bilan amaliy hamkorlik o‘rnatish;
- 5 ta fan asosida **mobil ilovalar** ishlab chiqish va **DGU Guvohnomasi**ga ega bo‘lish.

02

Raqamli tafakkur va innovatsiyalar?

- Xalqaro ilmiy elektron jurnal – xalqaro e’tirof sari;
- Talabalar uchun startap va akseleratsiya dasturi – g‘oyadan natijaga;
- Python, Data Science, AI – zamonaviy bilimlar;
- Robototexnika va 3D – texnologik tafakkur;
- Hackathon – innovatsion jamoaviy muhit.

Bugungi harakat — ertangi global muvaffaqiyat

03

Yangi bosqich

Nordikda ta’lim AI bilan uyg‘unlashadi, dasturlar global mehnat bozori talablariga moslashadi, talabalar bilimi amaliyot va startaplar orqali natijaga aylantiriladi.

- AI, EdTech, Data Literacy – barcha yo‘nalishlarda
- Xalqaro mobility va akkreditatsiyalar
- KPI, reyting, aniq sifat
- Bandlik, startap va innovatsiya markazida – talabalar...

Maqsad – raqamli, ochiq kelajak universitetini barpo etish!

04

Sifat va innovatsiyalar

*Nordikda ta’lim sifatini xalqaro darajaga olib chiqish, ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish va **ta’lim eksporti**ni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardir.*


Ta’lim sifati — AQSh standartlariga mos yangi dasturlar, onlayn va gibrid ta’lim, doimiy malaka oshirish hamda fakultetlar kesimida sifat monitoringi.

Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar — sun’iy intellekt va raqamli transformatsiya yo‘nalishlari, xalqaro grantlar va Scopus/Web of Science maqolalari, talabalar startaplari uchun Nordik **Innovation Hub.**

Nordik — biz bilan bir safda bo‘ling!

Kelajak moliyachilari uchun yangi manba

Bilimga sarmoya



Soliqlar va soliqqa tortish

*Nordik universitetida tayyorlangan **"Soliqlar va soliqqa tortish"** darsligida zamonaviy soliq tizimining nazariy va amaliy asoslari bo'yicha bilimlar jamlangan.*

Unda soliq solish tamoyillari, funksiyalari, soliq bazasi va stavkalari, hisoblash hamda to'lash mexanizmlari real misollar asosida izchil bayon etilgan.

Darslik iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda mustahkam bilim va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun tizimli, amaliy va zamonaviy manbadir.

Muallif:
Zafarjon Abdullayev

Yangi bilim manbalari

Nordikda ta’lim jarayonini metodik boyitishga qaratilgan yangi o‘quv qo‘llanmalar nashrga tavsiya etildi.



Tasdiqlangan yangi qo‘llanmalar:

01 **Русский язык**
Nodira Azamatova

02 **Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi**
Zaxro Xalikova

03 **Essentials of economics, business and tourism**
Barno Djamalutdinova

04 **Bolalar adabiyoti**
Dinara Muminova

05 **Maktabgacha ta’lim menejmenti**
Nilufar Berdiyorova



Treninglar haftaligi:

Nordik pedagoglari uchun rivojlanish maydoni









“Ta’lim tizimini samarali tashkil etishda pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazildi.

Tajribali trenerlar tomonidan o‘tilgan sun’iy intellekt va raqamli ta’lim, gamifikatsiya va innovatsion metodlar, baholash va darsni rejalashtirish bo‘yicha treninglar pedagoglar uchun rivojlanish maydoni bo‘ldi.

Amaliy mashg‘ulotlar pedagoglar uchun bilim va ko‘nikmalarni yangilashga keng imkoniyat yaratdi.

Nordik rektori tadqiqotchilar bilan uchrashdi

Nordik doktorantlari zamonaviy ilmiy metodologiyalarasosidaizlanisholibborib,xalqaroilmiy hamjamiyat bilan faol integratsiyalashmoqda.

Universitet rahbariyati ular uchun qulay akademik muhit, ilmiy rahbarlik va rivojlanish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Rektor Sherzod Mustafakulov yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tadqiqotchilar, doktorantlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.

Uchrashuv davomida dolzarb ilmiy izlanishlar, xalqaro indeksatsiyalangan nufuzli jurnallarda maqolalar chop etish, grant va loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari, shuningdek, doktorantlarning ilmiy salohiyatini oshirish va ularni tizimli qo‘llab-quvvatlash masalalari atroflicha muhokama qilindi.



Muhokama yo‘nalishlari:

Ilmiy izlanishlar | **Xalqaro nashrlar** | **Grant loyihalar**

XNU Repozitoriy:

Hujjatlar yagona raqamli makonda



Raqamlashtirilgan arxiv — tog‘dek papkalarni saqlash davri ortda qoldi!
Repozitoriy — hujjatlarni saqlashning zamonaviy va raqamlashtirilgan yechimi.
Nordik arxivi endi yagona platformada
https://repository.nordicuniversity.org/ xavfsiz, tezkor va qulay foydalanish uchun tayyor.

Raqamli tartib – samarali boshqaruv!

Qog‘ozsiz kelajak:
XNU raqamli muhitga o‘tdi!

Nordik universitetida raqamli universitet modeli asosida barcha ichki hujjatlar to‘liq qog‘ozsiz rejimga o‘tkazildi.

Nordik 100 % raqamli muhitga o‘tib, zamonaviy texnologiyalar asosidagi elektron hujjatlar aylanmasini joriy etdi.

Endilikda barcha xat va hujjatlar universitet Intraneti orqali elektron shaklda rasmiylashtiriladi https://e-hujjat.nordicuniversity.org/dashboard

Raqamli ta’lim va ma’muriyatdagi zamonaviy yechimlar ish jarayonida tezkorlik, shaffoflik va yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

https://e-hujjat.nordicuniversity.org/dashboard



TRENING HAFTALIGI:

Eng yaxshi tajribalar shakllandi



Nordik universitetida treninglar haftaligi qizg‘in va mazmunli o‘tdi. Mashg‘ulotlar dolzarb va bugungi ta’lim talablari bilan hamohang o‘tkazildi.

Treninglar davomida AI yordamida dars rejalashtirish, prompt injiniring kabi yo‘nalishlar tahlil qilindi. Innovatsion pedagogik metodlar orqali mashg‘ulotlar interaktiv va jonli tarzda olib borildi.

Ustozlar o‘z darslarini qayta ko‘rib chiqish, refleksiya va yangi pedagogik qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Dars jarayoniga tatbiq etish uchun yangi muhim tajribalar shakllandi.

AI yordamida dars rejalashtirish

Prompt injiniring

Refleksiya va yangi yondashuvlar

Ta'lim transformatsiyasi:

Nordik ustozlari CONNECT'da

Malayziyada yangi tajriba



Xalqaro Nordik universiteti professor-o‘qituvchilari va xodimlaridan iborat delegatsiya Malayziyada malaka oshirishdi.

Ular Malayziyaning nufuzli oliy ta'lim muassasasi — Utara universiteti (UUM) tomonidan tashkil etilgan CONNECT — Collaborative Network for Educator Capacity and Teaching Transformation professional rivojlanish dasturi doirasida o‘z bilim va tajribalarini boyitdilar.

Mazkur dastur ustozlarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli ta'lim dizayni, baholashning ilg‘or mexanizmlari, service learning hamda kelajakka yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini amaliy asosda o‘rganishga qaratilgan.

Ikki hafta davom etgan ushbu ta'lim safari doirasida Nordik delegatsiyasi Kuala-Lumpur va Kedah shaharlarida bo‘lib, CONNECT dasturiga oid treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarda faol qatnashdilar.

Ushbu xalqaro ta'lim tashrifi yangi xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, global akademik hamkorlikni mustahkamlash hamda Nordik universiteti ta'lim muhitiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish yo‘lida muhim amaliy ahamiyat kasb etdi.

2 hafta
professional rivojlanish dasturi

Talabalarimiz xalqaro sertifikatga ega bo‘ldilar



MALAYZIYA

UTARA UNIVERSITETI

Nordik universiteti talabalari Madinabonu va Shahzoda Malayziyaning Utara universitetida Student Exchange dasturi doirasida tahsil oldilar.

Talabalarimiz bilimga chanqoqligi, moslashuvchanligi va global ta’lim muhitida o‘zlarini namoyon eta olish salohiyatlari bilan universitet jamoasi va talaba-do‘stlari e’tiborini qozondilar.

Ular o‘quv jarayonini muvaffaqiyatli yakunlab, xalqaro sertifikat bilan taqdirlandilar.


MANAGER'S COFFEE
RESTORAN
MANAGER'S COFFEE
1188246-U



NORDIK OILASIDA

G‘urur-iftixor bayrami!









14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Nordik oilasida samimiy va bayramona tadbir bo‘lib o‘tdi.

Vatan himoyasi — bu faqat qurol bilan emas, balki ilm, tafakkur va yuksak ma’naviyat bilan amalga oshiriladigan ulug‘ burchdir. Tadbir davomida yangragan she’rlar, tabrik va tilaklar, quvnoq hazil-mutoyibalar va qiziqarli o‘yinlar Nordik jamoasining birdamligi, ahilligi va maqsadlar sari birlashganini yana bir bor namoyon etdi.

Haqiqiy Vatan himoyachisi – jasur, bilimli, ijodkor, tinchlikni asraydigan va jamiyatga tayanch bo‘la oladigan insondir. Nordik jamoasi esa ana shunday fidoyi va faol insonlar jam bo‘lgan katta va ahil oiladir.

Barcha ustozlarimizni, aziz erkaklarimizni va Vatanimiz posbonlarini bayram bilan samimiy muborakbod etamiz!

Sizlar bor joyda — tinchlik bor, fayz bor, kelajakka ishonch bor!

Nordik o‘g‘lonlari Vatan himoyachisi bo‘lsalar...

















Bilim bilan ◆ Jasorat bilan ◆ Intellekt bilan

BAYRAMINGIZ MUBORAK,
HAQIQIY QAHRAMONLAR!

CONNECT-ED amalda:

Malayziyada yangi tajribalar



Ustozlar salohiyatini rivojlantirish, pedagoglarni innovatorlarga aylantirishga qaratilgan dastur samarali amalga oshirildi.

Malayziyada o‘tkazilgan malaka oshirish mashg‘ulotlari doirasida raqamli portfel ishlab chiqish hamda talabalarning o‘rganish jarayonini namoyish etish bo‘yicha amaliy sessiyalar yuqori saviyada o‘tdi.

Mazkur mashg‘ulotlarda Utara universiteti olimlari Nordik universiteti ustozlari bilan o‘zaro ta’lim tajribalarini baham ko‘rdilar.

Nordik universitetining xorijiy til o‘qituvchilari, iqtisodchilar, IT mutaxassislari hamda pedagoglar ilg‘or promptlar bilan ishlashni o‘rgandilar.

Shuningdek, PBL — loyiha asosida o‘qitish metodi bo‘yicha jamoaviy, qizg‘in va samarali ish olib borildi. Muammo va savollar asosida o‘rganish, jamoada ishlash, tadqiqot va tahlil qilish, yechim ishlab chiqib, uni taqdim etish kabi jarayonlar orqali talabani faol o‘rganuvchiga aylantirishga xizmat qiluvchi yangi pedagogik ko‘nikmalar shakllandi.

G‘oyadan startapgacha:

Auditoriyadan amaliyotga



“Dizayn fikrlash va servis dizayni” fani doirasida talabalar uchun imtihon startaplar sinovi tarzida tashkil etildi.

Yakuniy nazorat ishi sifatida talabalar real muammolardan kelib chiqib, startap loyihalar ustida ishladilar — iste’molchi ehtiyojlari, bozor talabini tahlil qildilar va g‘oyani amalda ishlaydigan biznes modelga aylantirdilar.

Himoya jarayonida g‘oyaning dolzarbligi va muammo yechimi, bozor ehtiyojiga moslik va foydalanuvchi uchun yaratiladigan qiymat, monetizatsiya, loyiha qanday daromad keltirishi, dastlabki xarajatlar va moliyaviy asoslarga e’tibor qaratildi.

Himoya jarayoni talabalarga startap ekotizimiga kirish eshigi bo‘ldi. Talabalardan birining loyihasi UzCombinator akseleratsiya dasturiga qabul qilindi.

Bir nechta talaba o‘z loyihalarini Mirzo Ulug‘bek vorislari ko‘rik-tanloviga ro‘yxatdan o‘tkazishdi.

Ushbu tajriba talabalar uchun g‘oyani fan topshirig‘idan loyihaga aylantirish, bilim va ko‘nikmalarini amaliy maydonda sinash hamda kelajakdagi tadbirkorlik yo‘lini aniqlash imkonini berdi.

Fanning maqsadi muammoni yecha oladigan, bozorni tushunadigan va g‘oyasini iqtisodiy jihatdan asoslab bera oladigan mutaxassislarni shakllantirish.

Natijalar esa:

talabalarning startaplarga bo‘lgan qiziqishi ortdi, amaliy tayyorgarligi to‘g‘ri yo‘naltirildi. Kelgusida bu loyihalar rivojlantiriladi, amaliyotga joriy etiladi.

Koreyada 3 karra muvaffaqiyat:

Ilm, tajriba va xalqaro sertifikatlar





Xalqaro Nordik universiteti talabalarining ilmiy va akademik salohiyati yana bir bor e’tirof etildi.

Farzona va Mashhura Koreyaning Daegu University’da “Student Exchange” dasturi doirasidagi o‘qishni muvaffaqiyatli yakunlab, taqdirlash marosimida ishtirok etdilar.

E’tiborlisi, talabalarimiz 3 ta xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritib, raqobatbardosh bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lganlarini amalda isbotladilar. Bu yutuqlar til kompetensiyasi, madaniyatlararo muloqot va moslashuvchan fikrlash natijasidir.

Nordik universitetida — yangi nashrlar

Xalqaro Nordik universiteti nashriyotida ilmiy tafakkur va zamonaviy ta’lim rivojiga xizmat qiluvchi qator muhim nashrlar chop etilmoqda. Yangi o‘quv adabiyotlar talabalar, izlanuvchilar va mutaxassislar e’tiboriga havola qilinmoqda.

01 | Fantastik adabiyot

D.Nasriddinov

D.Nasriddinovning “Fantastik adabiyot” nomli monografiyasida zamonaviy fantastik romanlarning badiiy-estetik xususiyatlari chuqur ilmiy tahlil qilingan. Mazkur asar jahon va Amerika adabiyotini o‘rganayotganlar uchun yangi ilmiy manbadir.

02 | Цифровая экономика

Z.Madiyeva, K.Tadjibayeva va R.Yaxshiboyev

Z.Madiyeva, K.Tadjibayeva va R.Yaxshiboyev muallifligidagi “Цифровая экономика” darsligida esa iqtisodiyotning raqamli arxitekturasi, algoritmlari va zamonaviy texnologik asoslari yoritilgan. Ushbu nashr iqtisodiyot va jahon iqtisodiyoti yo‘nalishlari talabalari uchun muhim o‘quv qo‘llanmadir.

03 | Fiskal va monetar siyosat

I.Erkinxo‘jayev

I.Erkinxo‘jayevning “Fiskal va monetar siyosat” nomli o‘quv qo‘llanmasida iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmlari, davlat moliyaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari tahliliy yondashuv asosida bayon etilgan.

04 | Investitsiyalar

X.Sabirov, R.Mardanova

Shuningdek, Nordik universiteti ustozlari X.Sabirov va R.Mardanova muallifligidagi “Investitsiyalar” darsligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nashr etishga tavsiya qilindi.







Nufuzli diplomatik tashrif



Xalqaro Nordik universitetida yana bir muhim va tarixiy uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasining Shvetsiya Norvegiya va Daniya Qirolliklaridagi favqulodda va muxtor elchisi Rahmatulla Nurimbetov, Germaniya Federativ Respublikasi va Shveysariyadagi elchi Dilshod Axadov, Vengriya, Xorvatiya, Chernogoriya, Serbiya va Sloveniya Respublikalaridagi elchi Oybek Shaxavdinov, shuningdek, O‘zbekistonning BMTdagi doimiy vakili va mamlakatimizning Kubadagi birinchi elchisi Ulug‘bek Lapasov universitetga tashrif buyurdilar.

Nordik universiteti rahbariyati va Kengash a’zolari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda ilm-fan, akademik diplomatiya va xalqaro hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlari yuzasidan atroflicha fikr almashildi. Elchilar yurtimiz oliy ta’lim muassasalarini global ta’lim makonida raqobatbardosh ilmiy markazlar sifatida rivojlantirish, Nordik universitetini intellektual va ilmiy xalqaro xab sifatida amaliy qo‘llab-quvvatlashlarini bildirdilar.

Uchrashuv davomida Nordik davlatlari taraqqiyotining tarixiy bosqichlari, ularning o‘ziga xos modeli va identivligi, tinchlik diplomatiyasi, madaniy-siyosiy hamda ilmiy integratsiya, shuningdek, ta’limning global jarayonlardagi strategik o‘rni alohida ta’kidlandi.

Mazkur tadbirning e’tirofga molik lahzalaridan biri — xalqaro munosabatlar sohasida boy tajribaga ega, siyosiy fanlar doktori (DsC) Rahmatulla Nurimbetovga Xalqaro Nordik universiteti Faxriy professori ilmiy unvonining topshirilishi bo‘ldi. Ushbu qaror universitetning ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash, akademik diplomatiyani rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Nufuzli elchilar ishtirokidagi ushbu tashrif Nordik mamlakatlari bilan ta’lim va ilm-fan sohasidagi aloqalarni chuqurlashtirish, qo‘shma tadqiqotlar va akademik almashinuvlarni kengaytirish, talabalar hamda yosh tadqiqotchilar uchun xalqaro tajribaga tayangan bilim manbalari va imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Nordik ustozlari — Xitoyda

Yangi tajribalar



Xalqaro Nordik universitetining bir guruh ustozlari Xitoyning Chunsin shahrida Akademiya — Sanoat Integratsiyasi Tadqiqot institutida ikki haftalik kasbiy rivojlanish dasturida ishtirok etishdi.

Dastur davomida ishtirokchilar Xitoy Xalq Respublikasi ta’lim tizimi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ilg‘or amaliy tajribalar bilan yaqindan tanishdilar.

Lingvistika va til ta’limi bo‘yicha professorlar ishtirokidagi seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar xalqaro akademik tajriba almashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

2 hafta | **Kasbiy rivojlanish dasturi**

UNIVERSITET KENGASHI:
2026-yil vazifalari, ilmiy yo‘nalishlar va sifat nazorati - e’tiborda



Xalqaro Nordik universiteti Kengashining 1-son yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda 2026-kalendar yili uchun Universitet Kengashining ish rejasi tasdiqlandi.

Shuningdek, Kengash a’zolari tarkibi tasdiqlanib, qarorlar qabul qilish jarayonida mas’uliyatlilik va ochiqlik tamoyillari mustahkamlandi.

Yig‘ilishda yakuniy davlat attestatsiyasini samarali tashkil etish, bitiruvchi kurs talabalarini yakuniy imtihonlarga tayyorlash, YADAK tarkibini tasdiqlash masalalari tahlil qilindi.

Yangi o‘quv semestriga tayyorgarlik jarayonlari, fan dasturlari va o‘quv materiallarini o‘z vaqtida tayyorlash, ularni HEMIS platformasiga joylashtirish masalalari muhokama qilindi. Bu jarayon ta’limning uzluksizligi, shaffofligi va raqamli nazoratini ta’minlashda muhim ahamiyatga egaligi ta’kidlandi.

Yig‘ilishda “Ilmiy seminar, dissertatsiya muhokamalari va Ilmiy kengash faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish to‘g‘risida” va “Art of living” psixologik maslahat va yordam markazi to‘g‘risida”gi Nizomlar tasdiqlandi. Mazkur hujjatlar ilmiy jarayonlarni tezkor, ochiq va samarali tashkil etish, yosh tadqiqotchilar uchun qulay ilmiy muhit yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, 2025-yil davomida kafedralar professor-o‘qituvchilari tomonidan bajarilgan ilmiy ishlar shaxsiy ish rejalari asosida monitoring qilindi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish borasida yechimlar berildi.

Kengashda universitet tadqiqotchilari olib borayotgan ilmiy tadqiqotlar, ularning amaliy va ilmiy natijalari, monitoring mexanizmlari bo‘yicha hamda kun tartibidagi dolzarb turli masalalar ham ko‘rildi.

Quvonchlisi, Kengash raisi Sherzod Mustafakulov tomonidan Nordik ustozi Aziz Boltayevga fizika-matematika fanlari doktori diplomi topshirildi va samimiy tabriklandi.

Kengashning 1-son yig‘ilishida universitetni 2026-yildagi ustuvor yo‘nalishlari — sifatli ta’lim, ilm-fan, raqamli boshqaruv va natijadorlik tamoyillari asosida shakllanishida muhim ahamiyatga ega qarorlar qabul qilindi.

Nordik — Webometrics

TOP-50

Raqamli e’tirof!

30 000+ universitet qamrab olingan Webometrics Global Web Rankings reytingida Xalqaro Nordik universiteti (NIU) O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari orasida **50-o‘rin**, xususiy oliygohlar orasida **1-o‘rin**ni qayd etdi!

Webometrics bahosida Nordik:
- rasmiy veb-sahifa sifati
- ilmiy nashrlar ochiqligi
- impact va ko‘rinuvchanlik bo‘yicha global e’tirofga sazovor bo‘lmoqda.

Bu – muhim marra. Bu faqat boshlanishi!

https://www.webometrics.org/uzbekistan

Nordik o‘sishda davom etadi!



Bitiruvchi-2026:
Nordikda yuzlab orzular ushaldi



2026-yil 31-yanvar. Toshkent shahri, Yoshlar ijod saroyi bayramona bezatilib, orzu, umid va kelajakka ishonchi yuksak bitiruvchilar bilan gavjum bo‘ldi.

Xalqaro Nordik universitetining bitiruv kechasi yuzlab yangi mutaxassislar kelajakka yo‘l olgan tarixiy lahzalarga aylandi.

Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi sadolari bilan ochildi. Ushbu ulug‘ qo‘shiq bitiruvchilarga nafaqat faxr, balki yurt, xalq oldidagi mas’uliyat, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg‘ularini yana bir bor eslatdi.

Tadbirning ochilishida Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor Sherzod Mustafakulov bitiruvchilarni mashaqqatli va sharafli ilm yo‘lini muvaffaqiyatli bosib o‘tganlari bilan samimiy qutladi. Yetuklik diplomi, mustaqil fikr, mas’uliyat, mehnat va hayotga tayyorlikni qo‘lga kiritgan Nordik oilasi vakillariga eng ezgu tilaklarini yo‘lladi. Nordik o‘z bitiruvchilarini nafaqat malakali kasb egasi, balki jamiyatning faol, jonkuyar a’zolari, ayniqsa yosh avlodni oldinga yetaklaydigan ma’rifatparvar shaxslar, talabgor mutaxassislar etib tarbiyaladi. Bitiruvchi-mutaxassislarning yurtimiz ta’lim tizimi, xususan maktabgacha ta’lim sohasida yosh avlodga bor qalb qo‘rlari bilan ta’lim-tarbiya berish, muhimi shaxs va barkamol inson sifatida tarbiyalashlariga katta ishonch bildirildi.

Taniqli va xushovoz xonandalar Jahongir Poziljonov, Hayotbek Xolmatov hamda Musiqa ta’limi kafedrasi professor-o‘qituvchilari ijrolaridagi kuy-qo‘shiqlar bitiruv kechasini chinakam bayramga aylantirdi.

Xalqaro Nordik universiteti bitiruvchilari – diplom sohiblari, ta’lim, madaniyat va jamiyat taraqqiyotini yuksaltiruvchi yetuk mutaxassislardir. Ular yangi marralar sari dadil odimlar ekanlar, Nordik oilasining turli ilm maskanlar va jamoalardagi qadrli vakillari bo‘lib qolaveradilar.

Nordikning ikki iqtidorli qizi katta marrada!

Bu yutuq ular bilan faxrlanishimizga albatta arziydi!





Muslima Abdumannobova — Psixologiya yo‘nalishi talabasi, Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi sohibasiga aylandi!

Muslima nafaqat darslarda yuqori natijalarga erishib kelmoqda, balki ARMdagi mas’uliyatli faoliyati, talabalar bilan ishlashdagi jonbozligi, TasIMO olimpiadasi va konferensiyalardagi volontyorligi bilan ham barchaga o‘rnak.

U shaxsiy rivojlanish va muloqotga chanqoq, kelajakda Janubiy Koreyada tahsil olishni maqsad qilgan faol va irodali Nordik yoshlaridan.

Charos Ostonova — Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishi talabasi, Prezident davlat stipendiyasi sohibasi bo‘ldi!

Charos chuqur bilim, mustahkam amaliy ko‘nikmalar va xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lgan, mas’uliyatli va tashabbuskor talabamiz. Ilmiy-amaliy konferensiyalar, treninglar va ta’lim tadbirlaridagi faolligi uni fakultetimizning eng namunali va yetakchi talabalaridan biriga aylantirgan.

Bu yutuqlar — mehnat, intizom va maqsadlar sari ishonch bilan tashlangan qadamlar samarasidir. Albatta, bu muvaffaqiyatlarda ilmiy rahbarlar — Elshod Umarov va Nigoraxon Lutfullayevaning sidqidildan mehnati va saboqlari ham muhim o‘rin tutadi.

Qahramon talabalarimizni tabriklaymiz!

Xitoydan yangi ta’lim tajribalari

Ilm va amaliyot



Bugun ta’lim maydonida xalqaro tajriba, texnologik moslashuv va zamonaviy pedagogik tafakkur ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro Nordik universiteti ta’lim delegatsiyasining Xitoy Xalq Respublikasining Chunsin shahrida o‘tkazilgan xalqaro malaka oshirish dasturidagi ishtiroki ustozlarimizga kasbiy faoliyatlariga kengroq nazar solish imkonini berdi.

Dastur doirasida AI asosida til o‘qitish, raqamli baholash va feedback tizimlari, innovatsion dars loyihalash hamda ta’lim muhitiga moslashtirilgan amaliy workshoplar tashkil etildi.

Akademik va ilmiy tashriflar ham o‘tkazilib, ta’limning ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan modellari yaqindan o‘rganildi. Xususan, delegatsiyamiz Chongqing Industry Polytechnic University — Chunsin sanoat politexnika universitetining Iqtisodiyot va menejment, Sun’iy intellekt va Big Data maktablari hamda Nanchuan kampusi China Merchants Testing Vehicle Technology Research Institute — China Merchants avtotransport vositalarini sinovdan o‘tkazish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institute Chongqing instituti, Chinese Academy of Sciences (CAS) — Xitoy Fanlar akademiyasining Chunsin instituti, Sino-German Rhein Innovation Center — Xitoy–Germaniya “Rhein” innovatsiya markazining yuqori texnologiyalar hududlarida bo‘ldilar. Ushbu nufuzli universitetlar bilan xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlik aloqalari o‘rnatildi, qo‘shma loyihalar uchun zamin yaratildi.

Nordik yutug‘i texnologiya tarixiga bitildi!



O‘lmas Zoirov boshchiligidagi Nordik IT jamoasi nafaqat universitet, balki mamlakatimiz oliy ta’limi nomini xalqaro miqyosda yana bir bor baland ko‘tardi.

Ular Guinness Jahon Rekordlari tomonidan rasman tasdiqlangan GUINNESS WORLD RECORDS sertifikati sohibiga aylanishdi.

Rekord nimada?

Bir vaqtning o‘zida eng ko‘p inson robotlarni yiqqan ulkan texnologik jarayon — bilim, muvofiqlik va jamoaviy hamjihatlikning yorqin namunasidir.

Ushbu tarixiy rekord O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Nordik universiteti tashabbusi bilan Toshkent shahrida o‘rnatildi.

Bu tizimli ta’lim, amaliy IT salohiyat, innovatsion tafakkur va ishonchli jamoaviy mehnat mevasidir. Nordik IT jamoasi O‘zbekiston yoshlarining texnologiyalar bo‘yicha ham imkoniyatlari cheksiz ekanini butun dunyoga namoyish etishda davom etadilar.

Nordikdan - dunyoga navbatdagi parvozlar!







Kuni kecha professor-o'qituvchilarimiz Malayziyadan bir olam taassurot, hayrat va yangi tajribalar bilan qaytgan edilar. Endi esa Nordik bir guruh iqtidorli talabalariga Malayziyada o'qish uchun imkoniyat ochib berdi.

Akbarbek Mirzayev
Fazilat Husniddinova
Rayhona Usanova
Shahlo Yoqubova
Shahnozabonu Xoldarova

Bu omadli, bilimli talabalarimiz saralashdan muvaffaqiyatli o'tib, ta'limni endi global maydonda davom ettirmoqdalar. Malayziyaning nufuzli Utara universitetida Exchange student sifatida bir semestr tahsil oladilar.

Ular Jurnalistika, Jahon iqtisodiyoti, Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishlarida xalqaro bilim va tajriba orttiradilar.

Va yana bir faxrli yangilik! Iqtidorli talabamiz Madinabonu Abdusalomovaning Malayziyadagi o'qish muddati uzaytirildi. Bu — uning bilimi, mehnati va salohiyatiga berilgan katta ishonch!

Nega aynan Utara?

Bu reytinglarda dunyo tan olgan akademik makon:

THE: Jahon TOP–500
Yosh universitetlar – 71
ASEAN – TOP–8 | Malayziya – 6
QS: Jahon – 491 | Osiyo – 65.

Bu degani — sifat, raqobatbardoshlik va kuchli xalqaro brend.

Nordik yoshlarni dunyo bilan bog'lashda davom etadi.








Nordik so‘z san’atida ham yetakchi!

So‘zga mehr, adabiyotga sadoqat, Navoiy ruhiga ehtirom — bularning barchasi “G‘azalxonlar bahsi” anjumanida mujassam bo‘ldi.

Xalqaro Nordik universiteti Pedagogika kafedrasi dotsenti Sitorabonu Shomurodova Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga bag‘ishlab Milliy tiklanish demokratik partiyasi tomonidan tashkil etilgan “G‘azalxonlar bahsi”da yuksak mahorati, nafis talqini va g‘azalxonligi bilan 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Qizg‘in mushoira nafaqat hakamlar, balki barcha tinglovchilar qalbini ham ilhomga to‘ldirdi. Chunki haqiqiy ustoz faqat dars bermaydi, qalb tarbiyalaydi, adabiyotga oshno qiladi.

Nordikda bugun Navoiy nafasi bor. Navoiy g‘azallari jarangi bor. Navoiyshunos-g‘azalxon ustozlar, talabalar bor. Shu bois Nordikda g‘alaba ham bor!

Ustozimiz bilan faxrlanamiz!

Nordik talabalaridan yana bir yorqin g‘alaba!

Sahna nafasi



Talabalar teatr studiyalari | 2-darajali diplom

Sahnada chinakam mo‘jiza bo‘lishi uchun iste’dodning o‘zi kam — unga ishtiyoq, mehnat va jamoaviy ruh qo‘shilishi kerak. Ana shunday uyg‘unlikni Nordik talabalar teatr jamoasi yana bir bor amalda ko‘rsatdilar.

“Talabalar teatr studiyalari” ko‘rik-festivalining 2026-yilgi 2-hududiy bosqichida jamoamiz sahnadagi chiqishlarida qahramonlari obrazida yashadilar, his qildilar, tomoshabinni ham o‘sha tuyg‘uga olib kira oldilar.

Har bir obraz jonlandi. Har bir dialog qalbdan chiqdi. Har bir ijroda haqiqiy sahna nafasi sezildi.

Natija esa hududdagi jamoalar o‘rtasida 2-darajali diplom!

Nordik yoshlari faqat darsda emas, teatr san’atida, sahnada ham yetakchiliklarini yana bir bor isbotladilar. Bu g‘alaba — iste’dod, mehnat va bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish samarasidir.

G‘oliblarimizni chin dildan tabriklaymiz!

Bundan-da balandroq marralar, yanada yorqin pardalar kutib qolamiz!

Bo‘lajak mutaxassislar uchun yangi bilimlar paketi!

Nordik nashriyotida tayyorlangan zamonaviy, amaliy va bozor talablariga mos yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalar nashr ruxsatnomasini oldi. Bu adabiyotlar dolzarb bilim, zamonaviy dastur, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim va eng muhimi talabalarga yaqin kontentdir:

01
Прикладная математика
O‘quv qo‘llanma
X.Sabirov, A.Boltayev, X.Xudoyberdiyev, E.Boltayev

02
Milliy identivlik va OAV
Darslik
Y.Artikova

03
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Darslik
Sh.Radjabov

04
Kompyuter arxitekturasi
Darslik
Sh.Radjabov, M.Abdullayev, Z.Eshonqulova

05
Server boshqaruv
Darslik
Sh.Radjabov

06
Elektron tijorat
Darslik
Sh.Radjabov, M.Abdullayev

07
Business English Manual
O‘quv qo‘llanma
D.Azizova

Bu yutuqlar ham Nordik ilmiy maktabining kuchi, ustozlarimiz salohiyati va ta’lim sifatiga bo‘lgan qat’iy e’tibor natijasidir. Yangi nashr ruxsatnomalari Nordikning ta’lim sifatiga berilgan navbatdagi kafolatlardir.

Ustozlarimiz bilim ishlab chiqarishda izchil davom etishmoqda. Nashr yangiliklarini biz bilan kuzatib boring!

“Navoiyshunoslar forumi–2026”:

Navoiy – ma’rifat, ilm va inson kamoloti timsoli

585
Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi



8-fevral kuni Toshkent viloyatining so‘lim maskani — Green Hills Resort manzili yana bir bor ma’naviyat va tafakkur markaziga aylandi.

Buyuk mutafakkir, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan xalqaro miqyosdagi “Navoiyshunoslar forumi” yuqori saviyada tashkil etildi.

Xalqaro Nordik universiteti va UzReport TV tashabbusi bilan Toshkent viloyati hokimligi, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi hamkorligida o‘tkazilgan mazkur nufuzli anjuman ilm ahli, adabiyotshunoslar, navoiyshunoslar, professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlar va madaniyat arboblarini bir maqsad – Navoiy merosini chuqur anglash va targ‘ib etish yo‘lida jamladi.

Anjuman doirasida o‘tkazilgan ilmiy-badiiy davra suhbatida nafaqat yurtimiz olimlari, balki Avstriya, Belgiya, Koreya, Turkiya, Eron, Pokiston, Qirg‘iziston va boshqa Yevropa, Sharq, Osiyo mamlakatlari navoiyshunoslari o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar. Keng qamrovli ochiq fikr almashinuvi Navoiy merosini zamonaviy talqinda qayta o‘rganish imkonini berdi.

Forum yakunida qo‘shma ilmiy tadqiqotlar, nashrlar, tarjimalar va akademik almashinuvlarni kengaytirish bo‘yicha kelishuvlar ilgari surildi. Bu forum Navoiy poydevor qo‘ygan so‘z saltanatining bugungi avlod qalbidagi yangilangan sadosi bo‘ldi.



Nordik universiteti: ishonchli qadam va albatta katta natija!

Intilganga tole yor!

Nufuzli xalqaro platforma — uniRank-2025 reytingiga ko‘ra, Xalqaro Nordik universiteti (NIU) O‘zbekiston bo‘yicha TOP–20 talikda — 19-o‘rin, xususiy oliygohlar orasida — 1-o‘rin. Jahon reytingida — 7 900+ universitetlar qatorida!

2022-yilda tashkil etilgan universitetimiz uchun bu — katta yutuq va tezkor rivojlanish ko‘rsatkichi!

Nega biz?

— 7000+ talaba ishonchi
— davlat tomonidan rasmiy tan olingan diplomlar, malaka sertifikatlari
— tayyorlov (foundation), xalqaro maktab, bakalavriat va magistratura, doktorantura va boshqa ta’lim dasturlari
— zamonaviy kampus + kutubxona + xalqaro yondashuv
— xalqaro talabalar uchun ochiq imkoniyatlar
— selektiv (tanlov asosidagi) qabul — sifat kafolati.

Bu reyting — sifatli ta’limga berilgan xalqaro e’tirof!
Shiorimiz bejiz emas: “Intilganga tole yor!”

Nordik — muvaffaqiyat sari eng yaqin va yorqin yo‘l!



Kasbiy rivojlanish uchun 3 yangi kitob — 3 baravar imkoniyat!

Nordik ustozlari kasbiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar — yangi qo‘llanma va darsliklar yaratishda davom etmoqdalar.

Nordik nashriyotida tayyorlangan 3 ta zamonaviy, amaliy va dolzarb qo‘llanma bilim doirangizni kengaytirib, mutaxassis sifatida o‘sishingizda qo‘l keladi.

01 | Maktabgacha ta’lim menejmenti


N.Berdiyorova



Tarbiyachi, metodist va rahbarlar uchun amaliy qo‘llanma. Innovatsion boshqaruv, hujjat yuritish va samarali tashkilot modeli bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgani bilan ahamiyatli.

02 | Makroiqtisodiy siyosat


R.Mardanova, J.Qodirov, Z.Uralbayev



Iqtisodiyot va biznes sohasi mutaxassislari uchun muhim darslik. Pul-kredit siyosati, valyuta kursi, makrobarqarorlik va zamonaviy iqtisodiy tahlillar orqali iqtisodiy tafakkurni charxlaydi.

03 | Русский язык (A2)

N.Chernova



Til o‘rganuvchilar uchun sodda va bosqichma-bosqich metodika. Leksika, grammatika, nutq, yozuv va tinglab tushunish mashqlari bilan rus tilida erkin muloqot qilishga yordam beradi.

Nordikning yangi avlod nashrlari bilan o‘zingizni rivojlantirib boring!

XALQARO SEMINAR:
Yaponiya ta’lim tajribalari o‘rganildi

Ilmiy muloqot



Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash institutida pedagogik mahoratni rivojlantirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish hamda xalqaro tajriba almashinuviga bag‘ishlangan xalqaro seminar yuqori saviyada tashkil etildi.

Uch kun davom etgan mazkur anjumanda Xalqaro Nordik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori Odil Qo‘ysinov o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etib, Nagoya universiteti bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan grant loyihalari, ilmiy tadqiqotlar va istiqboldagi strategik rejalar haqida batafsil ma’lumot berdi.

Seminarda professor-olimlar va xalqaro ekspertlar — Aktam Jalilov, Sarkar Arani, Eldorjon Elmurodov hamda Kavanj Asuka ishtirok etib, pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, innovatsion ta’lim modellarini joriy etish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish borasida tajribalari bilan o‘rtoqlashdilar.

Mazkur uchrashuv milliy ta’lim tizimining istiqboliga doir strategik muloqot maydoniga aylanib, O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi akademik aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

KOMIL INSON SARI:

Bo‘lajak pedagoglar uchun motivatsion uchrashuv



Xalqaro tajriba va milliy qadriyatlar uyg‘unligida mahorat darsi tashkil etildi.

“Komil inson, mahoratli mutaxassis va shaxs” mavzusida o‘tgan mazkur dars ilmiy-motivatsion maydonga aylandi.

Trenerlar — Nordik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, professor Odil Qo‘ysinov hamda Pedagogik ta’lim va psixologiya kafedrasi professori Sherali Abduraimov ishtirokchilarga zamonaviy ta’lim falsafasi mazmun-mohiyatini tahliliy yondashuvlar bilan ochib berdilar.

Ochiq muloqot formatida o‘tgan dars davomida ta’lim islohotlarining amaliy natijalari, Finlandiya tajribasi va xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar, real keyslar asosidagi yechimlar muhokama qilindi.

Shuningdek, Xalqaro Nordik universitetining zamonaviy ta’lim xizmatlari, kadrlar tayyorlash va malaka oshirishdagi innovatsion yondashuvlari, qo‘shma dasturlar hamda stajirovka imkoniyatlari haqida batafsil ma’lumotlar taqdim etildi.

Mahorat darsida Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari hamda amaliyotchi mutaxassislar faol ishtirok etib, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish bo‘yicha muhim tavsiyalar oldilar.





Sifat, rivojlanish va ustuvor vazifalar

UNIVERSITET KENGASHINING 2-SON YIG‘ILISHI O‘TKAZILDI

Yig‘ilishda oliy ta’lim sifatini oshirish, ichki baholashni takomillashtirish hamda milliy va global reyting ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan ustuvor vazifalar keng muhokama qilindi.

Milliy reyting indikatorlari asosida kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib, akademik faoliyat sifati, ilmiy-tadqiqot natijalari, xalqaro hamkorlik darajasi, bitiruvchilarning bandligi hamda raqamlashtirish ko‘rsatkichlari universitetning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar sifatida e’tirof etildi.

Professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarini zamonaviy axborot tizimlari asosida tashkil etish masalasi ham keng muhokama qilindi. Yagona raqamli portfolio tizimini yo‘lga qo‘yish orqali pedagoglarning kasbiy rivojlanishini kuzatish, ilmiy va metodik faoliyat natijalarini tizimli jamlash hamda attestatsiya jarayonlarining shaffofligini ta’minlash ko‘zda tutilmoqda. Mazkur tashabbus universitet boshqaruvida raqamli transformatsiya jarayonining mantiqiy davomidir.

Kengashda Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasi qoshida xalqaro elektron ilmiy jurnalni ta’sis etish tashabbusi ham qo‘llab-quvvatlandi. Mazkur loyiha sanoat menejmenti, raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni ommalashtirish, xalqaro mualliflar bilan hamkorlikni kengaytirish hamda universitetning ilmiy brendini mustahkamlashga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Kun tartibidagi turli masalalar — o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni nashrga tavsiya etish, shuningdek, akademik jarayonlar bilan bog‘liq tashkiliy masalalar ko‘rildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

Kengash yakunida bir guruh ilmiy daraja olgan professor-o‘qituvchilarga diplomlar topshirildi. Tug‘ilgan kun egalari samimiy tabriklandi!



Kelajakni qurish tafakkurdan boshlanadi

"ERKIN MILLAT POYDEVORI" KITOBI TAQDIMOTI

O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni mustahkamlash, munosib mehnat tamoyillarini qaror toptirish, Konstitutsiya darajasida oila va bolalar, yoshlar himoyasini kafolatlash, so‘z erkinligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar jadal davom etmoqda. Bu tarixiy jarayonlar markazida g‘oya, fikr va mas’uliyat turibdi.

Shunday o‘zgarishlar jarayonida Xalqaro Nordik universitetida siyosatshunos Kamoliddin Rabbimov bilan uchrashuv o‘tkazildi.

Uchrashuv jamiyat va davlat, erkinlik va javobgarlik, islohot va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik borasida chuqur muloqot ruhida o‘tdi.

Muallifning kitobi — “Erkin millat poydevori” shaxsiy fikrlar, kuzatuvlarga asoslangan siyosiy-falsafiy, tahliliy asar. Muallif davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro mas’uliyat mexanizmlari, siyosiy madaniyat va boshqaruv etikasini teran yoritgan.

Muallifning asosiy g‘oyasi sodda va yuksak ma’noga ega — erkinlik ongli tanlov va ma’naviy tayyorgarlik mahsulidir.

Professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, talaba-yoshlar, rahbar xodimlar va OAV vakillari ishtirokida o‘tgan tadbirda “Erkin millat poydevori” kitobi taqdimoti o‘tkazildi.

Asar xususida keng muhokamalar, savol-javoblar, bahslar o‘tkazildi, xulosalar ilgari surildi.

Taqdimot davomida davlat islohotlarining barqarorligi, so‘z erkinligi chegaralari, inson qadri, siyosiy, iqtisodiy jarayonlar haqida savollar berildi.

Muhokamalar qizg‘in ruhda o‘tdi. Professor-o‘qituvchilar kitobning mazmun-mohiyatini yuqori baholadilar, shuningdek kelgusida yanada ilmiy-nazariy asosli asarlar kutishlarini ma’lum qildilar. Muallifga ko‘plab fikrlar, taklif-mulohazalar bildirildi.

Mazkur taqdimotda erkin fikr, siyosiy madaniyat va ijtimoiy mas’uliyat haqida ochiq muloqot olib borildi. Kitob mohiyati yoshlar uchun o‘ziga xos intellektual chaqiriq ham bo‘ldi.

YANGI HAMKORLIK:

Xalqaro tajribalar — milliy taraqqiyot uchun



Bugun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi hamda Xalqaro Nordik universiteti rahbariyatlari o‘rtasida muhim uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv davomida davlat boshqaruvi, ta’lim va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli yo‘nalishlar muhokama qilindi.

Muzokaralarda AQSh va Shimoliy Yevropa, xususan Finlandiyaning samarali davlat boshqaruvi va kasbiy ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalarini mahalliy sharoitga moslashtirish masalasiga e’tibor qaratildi.

Finlandiyaning yetakchi ta’lim markazlari va davlat organlarida qisqa muddatli malaka oshirish dasturlari va stajirovkalar tashkil etish, sanoat korxonalari uchun maqsadli malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish xususida so‘z bordi.

Muzokaralar davomida istiqbolli hamkorlikni boshlab beruvchi O‘zaro anglashuv memorandumi imzolandi. Endilikda hamkorlik doirasida “yashil” va “aqlli” boshqaruv tamoyillariga asoslangan yangi tashabbuslarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, hamkorlikda yoshlar salohiyatini oshirish va iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tashabbuslarni amalga oshirish, hududlarning barqaror rivoji uchun xalqaro grant va investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini kengaytirishga kelishildi.





Nordik oilasida bayram –

Xotin-qizlar uchun o‘zgacha ehtirom, o‘zgacha mazmunli kun!







Tabassum, gullar va samimiy ehtirom:

Nordikda 8-mart tantanasi



8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Nordik universitetida erkaklar jamoasi tomonidan ayollar uchun alohida mehr, ehtirom va ijodiy ruh bilan bezatilgan unutilmas bayram tadbiri tashkil etildi.

Nordik xotin-qizlari erkaklar tomonidan bayramona kayfiyatda gullar, samimiy tilaklar va iliq e'tibor bilan tantanali kutib olindilar. Ular uchun maxsus tayyorlangan yo'lakdan tabriklar, tilaklar qurshovida o'tish jarayoni chinakam bayram ruhini yaratdi — har bir qadam tabriklar, gul ifori va quvonchli tabassumlar bilan bezandi.

Yo'lak to'rida esa ayollarni bayramona fotozona qarshi oldi. Bu yerda ular hayajon, quvonch va samimiy kulgular bilan o'z ismlari bitilgan doska oldida esdalik suratlariga tushdilar.

Bayram dasturi yanada rang-barang va mazmunli kechdi. Tadbir mehmoni sifatida taniqli xonanda, hajviy ko'rsatuvlar muallifi va shoumen Zokir Ochildiyev davraga o'zgacha kayfiyat olib kirdi. Uning quvnoq chiqishlari, latifalari va sahna hazillari zalni kulguga to'ldirib, tadbirga jo'shqin va samimiy muhit bag'ishladi.

Shuningdek, mehmon san'atkorlarning ijrolari, kuy-qo'shiqlari davraga yanada yuqori kayfiyat va bayram shukuhi olib kirdi.

Tadbir davomida universitet rektori hamda jamoa erkak ustozlari ayollarga bo'lgan hurmat va ehtiromlarini nutqlar, samimiy tabriklar, dilbar she'rlar, maxsus tayyorlangan premyera qo'shiq va videoklip orqali izhor etdilar. Bayram yakunida esa ayollarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Bu kun Nordik xotin-qizlari uchun alohida ehtirom va qadrlash ramziga aylangan. Bayram davomida ular doimgidan ham yuksak hurmat, mehr, quvonch va xushnudlik og'ushida bo'ldilar. Zal esa kulgi, qarsaklar va shodon kayfiyatga to'lib, davra fayzi yanada ortib bordi.

MISS NORDIC 2026

Nordik toji o'z egasini topdi!



Go‘zallik, zakovat, ijod va sahna mahoratiga asoslangan “Miss Nordic – 2026” tanlovi bayramona kayfiyatda o‘tdi.

Talaba-qizlarimiz nafaqat go‘zalligi, balki bilimi, nutqi va ijodiy yondashuvi bilan ham o‘ziga xosliklarini namoyish etishdi.

Tanlovda dastlab insho yozish – fikr va tafakkur sinovi o‘tkazildi. Tanishtiruv shartida ishtirokchilarning o‘zini erkin tutishi va jozibador namoyon etishiga ahamiyat qaratildi.

Milliy obraz yaratish shartida esa milliy qadriyatlar keng tarannum etildi. Erkin mavzu bahsida ijod va sahna mahorati sinovdan o‘tkazildi.

TANLOV NATIJALARI

1. 1-o‘rin sohibasi Husniyabonu Maxmudova
2. 2-o‘rin sohibasi Marjona Mahmudova
3. 3-o‘rin sohibasi Muborak G‘ayratova

Tanlovda faol ishtirok etgan talabalar nomlarini ham alohida e’tirof etib o‘tamiz: Nasibaxon Mirsodiqova, Mohinur Mirobidova va Shahzoda Ergasheva.

“Miss Nordic – 2026” yana bir bor shuni isbotladi: Nordik qizlari — nafislik, bilim va iste’dod uyg‘unligining yorqin timsolidirlar!

Nafosat olami

Mehr va birlik

Nordikda betakror bayram



Talabalar tomonidan go‘zal va muqaddas ayyomlar — Xotin-qizlar kuni, Ramazon Hayiti hamda Navro‘z munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi.

Bayram davomida milliy kuy-qo‘shiqlar jaranglab, sahnada rang-barang, mazmunli va badiiy chiqishlar namoyish etildi. Har bir chiqish o‘ziga xos ruh, nozik did va yuksak iste’dod uyg‘unligida tomoshabinlar qalbidan chuqur joy oldi.

Talabalarning ijodiy yondashuvi, sahnadagi ishonch va jo‘shqinligi, turli shartlarga qo‘l mehnati, did va mahorat uyg‘unligidagi yechimlari ustozlar tomonidan ijobiy baholandi.

Bu unutilmas ayyom qalblarni yaqinlashtirib, mehr-oqibat va birlik tuyg‘ularini yanada mustahkamladi. Samimiy tabassumlar, iliq muhit, bahoriy taomlar esa bayramga o‘zgacha tarovat bag‘ishladi.

ILMIY KENGASH MAJLISI:

Navbatdagi dissertatsiya himoyalari o‘tkazildi



Xalqaro Nordik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.26.01 raqamli Ilmiy kengash majlisi doirasida navbatdagi dissertatsiya ishlari himoya qilindi.

Mazkur ilmiy yig‘ilishda oliy ta’lim va ilm-fan integratsiyasini mustahkamlash, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga e’tibor qaratildi.

Majlis davomida tadqiqotchi Nigmanov Azizbek Ulug‘bekovich tomonidan “O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida energiya sarfini kamaytirish bo‘yicha xorijiy tajriba (Xitoy Xalq Respublikasi misolida)” mavzusidagi dissertatsiya ishi taqdim etildi.

Tadqiqotda sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg‘or xorijiy yondashuvlar tahlil qilinib, ularni milliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Himoya jarayonida ishning nazariy va amaliy ahamiyati keng muhokama qilindi.

Shuningdek, tadqiqotchi Xalmatov Turg‘unbay Qo‘chkarovichning “Yengil sanoat korxonalari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiyasi ham kengash raisi va a’zolari tomonidan atroflicha ko‘rib chiqildi.

Mazkur ish raqamli transformatsiya jarayonlarining yengil sanoat tarmoqlariga tatbiqi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari chuqur tahlil etilganligi bilan ahamiyatlidir.

Muhokamalar yakunida har ikki dissertatsiya ishi ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati va dolzarbligi nuqtai nazaridan ijobiy baholanib, Ilmiy kengash qaroriga muvofiq munosib ravishda tasdiqlandi.



Nordikda ilk bor o‘tkazilgan Nordic Talk loyihasida talabalarning fikri, ovozi va dadil qarashlari kashf etildi!

Ushbu innovatsion akademik platforma Chet tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi Durdona Azizova va dekan o‘rinbosari Zafar Uralboyev tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yildi.

Nordik ta’lim qadriyatlariga uyg‘un loyihaning maqsadi kreativ tafakkurni uyg‘otish, nutq ta’sirchanligini oshirish va eng muhimi, o‘z fikrini erkin, dadil ayta oladigan yetakchi yoshlar safini kengaytirib borishdir.

Talabalar ingliz tilida o‘z hayotiy tajribalari va qarashlariga asoslangan nutqlar bilan chiqish qilib, tomoshabinlarni o‘ylantirib ham qo‘ydilar.

G‘oliblar bilan tanishamiz:

Eng yaxshi spiker — Elvira Abdumalikova, “Biz qo‘llab-quvvatlayotgan kontent, biz yaratayotgan hamjamiyat”


Eng ilhomlantiruvchi nutq — O‘g‘iloy Kubayeva, “Haqiqatan fikrlayotgan kim? Sizmi yoki sizning miyangiz?”

Eng yaxshi g‘oya — Nodirabegim Xamidova, “Zerikishning ahamiyati”

Barcha ishtirokchilar sertifikatlar bilan, g‘oliblar esa diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Tadbir tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi va bu faqat boshlanishi! Nordic Talk — yangi g‘oyalar, yangi ovozlar va yangi liderlarni kashf etishda davom etadi.





UNIVERSITET KENGASHINING 3-SON YIG‘ILISHI:

Ustuvor vazifalar tahlil etildi

Nordik universitetida o‘tkazilgan Kengash yig‘ilishida tizimdagi islohotlar, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim masalalar keng muhokama qilindi.

Dastlab vazirlik hay’ati qarorlari ijrosi, tizimli yondashuv hamda natijadorlik masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Mas’ullar tomonidan taqdim etilgan hisobotlarda amalga oshirilgan ishlar, innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish va samaradorlikni oshirish bo‘yicha erishilgan natijalar yoritildi. Shu bilan birga, monitoring va baholash mexanizmlarini takomillashtirish, ichki nazoratni kuchaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Kun tartibidagi muhim masala — universitetning 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot faoliyati konsepsiyasi ko‘rib chiqildi. Mazkur loyihada ilmiy izlanishlarni amaliy natijadorlikka yo‘naltirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, grant va investitsiyalarni jalb etish, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

“Work and Travel – 2026” dasturi doirasida xorijga yuborilayotgan talabalarni tayyorlash, ularning xalqaro mehnat bozoriga moslashuvi va amaliy tajriba orttirishiga ko‘maklashish bo‘yicha aniq vazifalar belgilandi.

Kengash yig‘ilishida “TasIMO – 2026” xalqaro matematika olimpiadasini yuqori saviyada tashkil etish masalasi ham alohida e’tibor markazida bo‘ldi. Rektor Sherzod Mustafakulov tomonidan olimpiadani keng targ‘ib qilish, raqamli platformalardan samarali foydalanish, ishtirokchilar geografiyasini kengaytirish hamda keyingi bosqichlarni yuqori darajada tashkil etish yuzasidan tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Yig‘ilishda qabul kampaniyasini samarali tashkil etish masalasi ham ko‘rib chiqilib, mas’ullar tomonidan tahliliy ma’lumotlar taqdim etildi.

Kengashda ko‘rilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi. Shuningdek, ilmiy yutuqlarga erishgan professor-o‘qituvchilar va stipendiat talabalar Kengash raisi tomonidan samimiy muborakbod etildi.

Milliy identivlik

Uch ming yillik xotira va bugungi ong



Nordik universitetida yangi darslik, yosh jurnalist-kadrlar tafakkurini shakllantiruvchi muhim ilmiy manba taqdim etildi.

Ijtimoiy fanlar va jurnalistika kafedrasi professori, f.f.d. Yulduz Ortiqova muallifligidagi “Milliy identivlik va OAV” darsligida zamonaviy jurnalistikaning eng nozik va dolzarb masalalaridan biri — milliy o‘zlikni anglash va uni axborot makonida to‘g‘ri ifodalash masalasi ilmiy asosda yoritilgan.

Taqdimot marosimida “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri, f.f.f.d. Salim Doniyorov hamda O‘zJOKU professori, f.f.d. Fayzulla Mo‘minov ishtirok etib, mazkur asarning ilmiy, ma’naviy va amaliy ahamiyatiga chuqur baho berdilar.

Ustoz ma’ruzachilar — professor Fayzulla Mo‘minov va Najmiddin Qodirov milliy identivlikning tarixiy shakllanish jarayoniga e’tibor qaratib, uning osonlik bilan emas, sinovlar, yo‘qotishlar bilan bugungi avlodga yetib kelganini alohida ta’kidladilar. Milliy identivlik uch ming yillik millat xotirasi, sha’ni va kelajagi bilan bog‘liq murakkab, muhim tushuncha ekanini qayd etdilar.

Salim Doniyorov masalaga yanada kengroq ijtimoiy-falsafiy yondashib, bugungi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni asrab qolish ongli tanlov ekanini urg‘uladi.

Tadbir yakunida Salim Doniyorov “Yangi O‘zbekiston orzusi” kitobini universitet kutubxonasiga sovg‘a qildi. Bu esa yangi ilmiy hamkorlik va ma’naviy aloqalarning yana bir ramziy ifodasi bo‘ldi.

Tadbir davomida mehmonlar universitet faoliyati bilan yaqindan tanishib, ilmiy hamkorlikni kengaytirishlarini ham bildirdilar.

Mamlakatlar paradi:

Turli xalqlar qadriyatlari – talabalar nigohida



Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan anjumanda Nordik turli millatlar madaniyati jamlangan noyob maydonga aylandi.

Har bir jamoa bir xorijiy davlat vakillari sifatida namoyon bo‘ldilar. Har bir chiqish bir xalq tarixini aks ettirdi, taomlar ko‘rgazmalarida esa milliy taomlar boyligi, gastronomik xilma-xillik o‘z aksini topdi.

Amerika, Fransiya, Finlandiya, Turkiya, Koreya, Italiya va boshqa davlatlar oshxonasi taqdim etildi va talqin qilindi.

Ayniqsa, jonli musiqa, talabalar ijrosidagi kuy-qo‘shiqlar bayramni bezadi.

Anjumanda talaba-yoshlar ijodiy mehnat va mahoratlari bilan birga keng dunyoqarashlarini ham namoyish etdilar.

Eng yaxshi dasturxon, kostyum, sahna g‘oyasi, dekoratsiya, ta’m va boshqa nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblar aniqlandi. Har bir jamoaning mehnati, tafakkuri va jamoaviy ruhiga munosib baho berildi.

“Mamlakatlar paradi” bu butun dunyoning kichik modeli ham bo‘ldi. Madaniyatlararo chegaralar yo‘q, til to‘siqlari yo‘q. Ijod, hurmat va o‘zaro qiziqish hamda qarashlar uyg‘unligida bayram qilindi.




INTERNATIONA

Deputatlar va yoshlar:

G‘OYA, TASHABBUS VA IMKONIYAT



Nordik universitetida tadbirkorlikka intilayotgan tashabbuskor yoshlar safini kengaytirish maqsadida “Kreativ tadbirkor yoshlar” loyihasi doirasida “Yangi O‘zbekistonni birgalikda quramiz!” shiori ostida mazmunli uchrashuv tashkil etildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Toshkent shahar Kengashi hamkorligidagi uchrashuvda ochiq va samimiy muloqot muhiti yaratildi.

Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Gulshana Xudoyarova va Aziza Aminova, shuningdek, O‘zLiDeP Toshkent shahar Kengashi Yoshlar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi mudiri Dilnoza Tajiyeva o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, yangi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, talabalar tashabbuslarini amaliyotga joriy etish yo‘llari, davlat va yoshlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama markazida bo‘ldi.

Uchrashuvda bugungi yoshlar faqat bilim oluvchi emas, jamiyatdagi o‘zgarishlar tashabbuskori sifatida shakllanishi zarurligi ta’kidlandi.


O'ZLIDEP
#XalqBilanBirga


105
O'ZLIDEP

ETS bilan hamkorlik: Xalqaro sertifikatsiya va akademik mobillik sari



Xalqaro ta’lim makonida o‘z o‘rnini mustahkamlab borayotgan Nordik universitetida yana bir nufuzli delegatsiya qabul qilindi.

Educational Testing Service (ETS)ning Yevroosiyo va Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy direktori Anna Gutkowska-Zając boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi.

Uchrashuv davomida ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim yo‘nalishlar muhokama qilindi. Jumladan, o‘qituvchilar malakasini oshirish, ETS tomonidan tasdiqlangan zamonaviy kontentlar asosida qo‘shma treninglar, seminarlar va vebinarlar tashkil etish, ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha ilg‘or metodikalar joriy etish masalalari alohida e’tibor markazida bo‘ldi.

Shuningdek, TOEFL iBT imtihoniga tayyorgarlik ko‘rish, talabalar va pedagoglar o‘rtasida test savodxonligini rivojlantirish, xalqaro sertifikatsiyaga tizimli yondashuvni shakllantirish hamda global akademik mobillik uchun mustahkam poydevor yaratish istiqbollari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Mazkur tashrif davomida tomonlar o‘rtasida o‘zaro anglashuv memorandumi imzolandi. Ushbu hujjatda ta’lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va xalqaro integratsiyani kengaytirishga qaratilgan aniq ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi.

Bu hamkorlik Nordik universiteti va ETS o‘rtasidagi hamkorlikni uzoq muddatga mustahkamlashga xizmat qiladi.



Xalqaro muloqot:

TAHLIL VA TA’LIM INTEGRATSIYASI

Nordik universitetiga “Agenda Nexus Think Tank” (ANTT) — strategik tahlil, xalqaro munosabatlar va siyosat innovatsiyalari markazi asoschisi va direktori Oden Aghapoor tashrif buyurdi.

Nufuzli mehmon — Jurnalistika va Ta’lim boshqaruvi bo‘yicha katta tajribaga ega xalqaro ekspert bilan fikrlar almashildi. Xususan, ta’lim tendensiyalari, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, akademik rivojlanishning yangi modellarini tahlil qilish va kelgusidagi hamkorlik yo‘nalishlarini belgilab olishga qaratilgan mazmunli muloqot o‘tkazildi.

Uchrashuv davomida qo‘shma loyihalarni yo‘lga qo‘yish, hamkorlikda xalqaro konferensiyalar tashkil etish, barqaror rivojlanish yechimlarini ishlab chiqish, tahlillarga asoslangan amaliy yo‘riqnomalar — bilimlar almashinuvi, talabalar va tadqiqotchilar uchun yangi akademik platformalar yaratish xususida so‘z bordi.

Xalqaro darajadagi ilmiy va tahliliy platformalarni kengaytirish borasida kelishuvlarga erishildi.

48 ta davlat: Yo‘llar o‘rgatadi



Nordik universitetida Turizm yo‘nalishi talaba-yoshlari uchun mazmunli uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Mehmon — mashhur sayyoh va bloger Qobiljon Abdusattorov.

Bu uchrashuv bo‘lajak mutaxassislarga o‘z sohalari va dunyoga keng nigoh bilan qarashga undovchi suhbat bo‘ldi.

Qobiljonning hikoyalari bir haqiqatni yana bir bor isbotladi: sayohat faqat chiroyli suratlar, story va reelslardan iborat emas. Yo‘llar sinov, tavakkal va katta hayot maktabi.

2022-yildan buyon u dunyoni samolyotsiz, avtomobilda kezmoqda. Hozirgacha 48 ta davlatni bosib o‘tgan. Uning maqsadi Guinness World Recordsga kirish (hozirgi rekord: 130 davlat).

Bu raqamlar ortida esa yo‘llarda o‘tgan tunlar, kutilmagan xavf va sinovlar, notanish tillar qiyinchiliklari va eng muhimi — sayohatchining taslim bo‘lmas irodasi borligidir. Uchrashuv davomida talabalar sayohatni nimadan boshlash kerakligi, blogerlik va sayyohlikni qanday uyg‘unlashtirish mumkinligi, yo‘lda uchraydigan “kutilmagan ssenariylar”dan chiqish yo‘llari borasidagi tajriba va xulosalardan bahramand bo‘ldilar.

Uchrashuvda ta’kidlanganidek, “Turizmda yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun avvalo turist bo‘lib ko‘rish kerak.”



NIU toys — Nordik AI ustozlari va talabalarining innovatsion yondashuvi asosida yaratilgan yangi loyiha.

- 3D printerda yuqori aniqlikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar
- Harakatlanuvchi (flexi) dizayn — realizm va estetika uyg‘unligi
- Minimalizm, sifat va eksklyuzivlik.

Antistress o‘yinchoqlar va kreativ breloklar — zo‘r sovg‘a bo‘lishi mumkin!

E’tibor va e’tirof:

Foundation bitiruvchilariga sertifikatlar topshirildi



Bugun ta’lim tizimida natija berayotgan eng muhim omillardan biri bu to‘g‘ri yo‘naltirilgan tayyorlov bosqichidir. Xalqaro Nordik universitetining Foundation dasturi aynan shu vazifani bajarib, yoshlar uchun mustahkam akademik ko‘prik bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida o‘tkazilgan Sertifikat topshirish marosimi ushbu tizimning amaliy natijalarini yaqqol namoyon etdi. Ushbu tadbir nafaqat yakun, balki yangi imkoniyatlar eshigini ochgan muhim bosqich sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.

Tantanali tadbir yuqori saviyada tashkil etilib, unda davlat arbobi, olim, Oliy Majlis Senati raisining o‘rinbosari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori Sodiq Safoyev va Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor Sherzod Mustafakulov, shuningdek, diplomat va Akademik litsey direktori Oydinxon Mannopova yoshlarning yutuqlarini yuqori baholab, bu natijalar ortida izchil mehnat va sifatli ta’lim turganini ta’kidladilar. Bitiruvchilarga kelgusi ta’lim bosqichlarida qat’iyat, izlanish va katta marralar tiladilar.

E’tiborlisi, mazkur dastur samaradorligini aniq raqamlar orqali ham ko‘rish mumkin. Joriy yilda 23 nafar bitiruvchining to‘g‘ridan-to‘g‘ri 2-bosqichga o‘qishga qabul qilinishi bu yoshlarning bilimga bo‘lgan intilishi va zamonaviy ta’lim modelining muvaffaqiyatli natijasidir. 54 nafar bitiruvchi esa Foundation dasturini muvaffaqiyatli yakunlab, sertifikat bilan taqdirlandi.

“Быстрый старт” olimpiadasida kumush:

Nodirbekdan faxrli natija!



Rus tili bo‘yicha “Jadal start” olimpiadasi natijalari e’lon qilindi (diktant va test sinovlari asosida).

Talabamiz Nodirbek Ahadbekov 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi!

U 11–17-sentyabr kunlari Yekaterinburg (Rossiya)da bo‘lib o‘tadigan “Xalqaro yoshlar festivali–2026”da ishtirok etadi.

Talabamizni tabriklaymiz va yangi zafarlar tilaymiz!

Oliy ta’lim sari yo‘l:

NORDIK JAMOASI 14 HUDUD YOSHLARI BILAN BEVOSITA MULOQOTDA









Xalqaro Nordik universiteti jamoasi mamlakatimizning 14 ta hududida keng qamrovli ilmiy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirdilar.


Ushbu tashabbusning bosh maqsadi — bituruvchi-yoshlarga oliy ta’limning ahamiyatini kengroq yetkazish, ularni ongli kasb tanlashga yo‘naltirish va zamonaviy ta’lim imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirishdir.

Uchrashuvlar doirasida maktab o‘quvchilari bilan yuzma-yuz muloqotlar tashkil etilib, ta’lim tizimidagi so‘nggi islohotlar, zamonaviy o‘quv jarayonlari va mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo‘lish yo‘llari taqdimotlar, buklet, videolavhalar va hayotiy misollar asosida tushuntirildi. Mazkur uchrashuvlar nafaqat targ‘ibot, balki ijtimoiy-ma’rifiy muloqot maydoni sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Nordikning bu tashabbusi ta’lim va katta hayotga kirib kelayotgan yoshlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlovchi, bituruvchilar ongida bilimga, oliy ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiruvchi muhim jarayon bo‘ldi.

E’tirof va ishonch timsoli:

O‘MON ELCHISIDAN YUKSAK EHTIROM MAKTUBI



Xalqaro Nordik universiteti yana bir yuksak e’tibor markazida!

O‘mon Sultonligining O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Vafo Jabr al-Busaidiy universitet rektoriga yuksak ehtirom bilan maktub yo‘lladi.

Maktubda universitetning ilmiy va akademik sohadagi yetakchi o‘rni, ma’rifatni keng targ‘ib etishdagi faoliyati hamda ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashdagi hissasi alohida e’tirof etilgan.

Shuningdek, elchi tomonidan “Islohotchi taxtda” nomli asar universitetga taqdim qilindi. Bu nafaqat sovg‘a, balki chuqur ishonch va mustahkam hamkorlik ramzidir.

Mazkur kitob tarixiy shaxs, O‘mon Sultoni Qobus bin Said hayoti va davlat boshqaruvidagi islohotlariga bag‘ishlangan bo‘lib, tarix va siyosat chorrahasidagi muhim qarashlar yoritilgan. Endilikda ushbu noyob asar universitet kutubxonasidan o‘rin olib, talaba va tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu tuhfa ilmiy va ma’rifiy hamkorlikning yanada mustahkamlanishi yo‘lida muhim qadamlardan bo‘ldi.



NORDIK YOSHLARI –

Kelajak muhandislari safida

G‘oyadan yechimga

Xalqaro festival ko‘rgazmasida Nordik talabalari o‘z ishlanmalari bilan ishtirok etishdi. Ko‘rgazmada amaliy yechimlar, innovatsion yondashuvlar va katta maqsadlar namoyish qilindi.

Buyuk merosga nazar:

Talabalar esse tanlovida






Buyuk sarkarda Amir Temur nomi – g‘alaba, dono boshqaruv, qat’iyat va adolat ramzi.

Uning bebaho merosi – “Temur tuzuklari” esa asrlar osha davlat boshqaruvi va insoniy qadriyatlar maktabi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Ana shu buyuk merosni chuqur anglash, uni zamonaviy nigoh bilan talqin qilish maqsadida Nordikning kitobxon talabalari o‘rtasida esse tanlovi tashkil etildi.

Yoshlarimiz “Temur tuzuklari – adolat va davlat boshqaruvi maktabi” mavzusida qalam tebratar ekanlar, ular tarixga murojaat qilish barobarida bugunning muhim savollariga ham javob izladilar. Bu tanlov yoshlar tafakkuri, tahliliy qarashi va o‘zlikni anglash yo‘lidagi o‘ziga xos yo‘l bo‘ldi.

TA’LIM SIYOSATIDA YANGI PARADIGMA:

Sun’iy intellekt va til kompetensiyalari





Nordik universitetida “Xorijiy tillarni o‘qitish va tarjima sohasida sun’iy intellektdan samarali foydalanishning zamonaviy tendensiyalari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.

Ushbu anjumanda zamonaviy ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlari — raqamlashtirish, innovatsion pedagogika va sun’iy intellekt integratsiyasi chuqur ilmiy muhokama qilindi.

Anjuman xalqaro miqyosda o‘tkazilib, unda xorijiy davlatlar va respublikamiz oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, soha mutaxassislari hamda iqtidorli talabalar faol ishtirok etdilar. Ilmiy muloqotlar davomida ilg‘or g‘oyalar almashildi, akademik hamkorlik aloqalari yanada mustahkamlandi.

Tadbir ishtirokchisi – AQSh Davlat departamenti ingliz tili bo‘yicha mutaxassisi, O‘zDJTU professori Giuseppe Chiaramonte o‘z taassurotlarini bildirib, sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga to‘g‘ri tatbiq etish, undan oqilona foydalanish va talabalarni to‘g‘ri yo‘naltirish bugungi kun o‘qituvchisining eng muhim vazifalaridan biri ekanini ta’kidladi. U Markaziy Osiyo davlatlari tajribasini qiyoslab, O‘zbekistonda innovatsiyalarga ochiqlik, yangi g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash va ularni amaliyotga joriy etish borasidagi ijobiy muhitni alohida e’tirof etdi. Uning “Inson agentligi, mashina ravonligi: til o‘qitish va tarjima uchun yangi savodxonlik” mavzusidagi kreativ ma’ruzasi katta qiziqish bilan tinglandi.

FEDERATSIYA - NORDIK - INKLYUZIV MAKTAB HAMKORLIGI:

“Har bir yosh — imkoniyat egasi!”



Nordik universiteti hamkor o‘quv muassasalari bilan birgalikda yoshlar salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi intellektual loyihalarni izchil davom ettirmoqda.

Prezident tomonidan sport sohasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosi doirasida O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi, 77-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati hamkorligida o‘quvchilar hamda Nordik universiteti talabalari ishtirokida shaxmat va shashka musobaqasi o‘tkazildi.

Bugungi ta’lim siyosatida inklyuzivlik – zaruriy tamoyil. Shu ma’noda, mazkur musobaqa orqali yoshlarning intellektual salohiyatini ochish, ularni ijtimoiy faollikka jalb etish hamda “har bir yosh — imkoniyat egasi” degan g‘oyani amalda ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratildi.

Tadbirda O‘zbekiston Shaxmat federatsiyasi vakillari hamda xalqaro grossmeysterlar ishtirok etib, yoshlar bilan ochiq muloqot olib bordilar. Bu bilan esa ishtirokchilar uchun nafaqat musobaqa, balki xalqaro darajadagi ustozlar tajribasidan bevosita bahramand bo‘lish imkoniyati ham yaratildi.

Shuningdek, shaxmatga oid kitoblar taqdimoti o‘tkazilib, bilim almashildi. Eng sara qo‘llanmalar jamlanmasi yosh ishtirokchilarga sovg‘a qilindi.

Shaxmat federatsiyasi musobaqasi g‘oliblari (talabalar): Zafar Zoitjonov, Farangiz Abdumo‘minova va Aziz Azimov.

Shashka bo‘yicha g‘oliblar (maktab o‘quvchilari): Shukrulloxon Salomov, Diyorbek Joniqulov va Oybek Rahimqulov.

Nordik yana birinchi!

Jamoaviy ruh









12 ta jamoa | 1-O‘RIN

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Markaziy bog‘da “Madaniyat orqali — birgalikda” deb nomlangan kvest bo‘lib o‘tdi.

12 ta kuchli jamoa ishtirok etgan kvestda o‘nlab murakkab topshiriqlar mahorat bilan uddalandi.

Finalda albatta Nordik talabalar jamoasi! Tezkor fikrlash, chaqqon harakat va aqlli yechimlar, Nordikka xos liderlik kayfiyati hamda jamoaviy ruh bilan talabalarimiz 1-O‘RINni zabt etishdi!

Ta’lim, ma’rifat va innovatsiyalar yo‘lida muhim hamkorlik



Xalqaro Nordik universiteti va “Ziyoli avlod” madaniyat va ma’rifat markazi rahbariyatlari o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Muloqot davomida yoshlarning ilmiy, ijodiy va ma’naviy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish hamda innovatsion tashabbuslarni rivojlantirish masalalarida so‘z bordi.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar, forum va festivallar tashkil etish, yoshlarning madaniyat va san’atga qiziqishini oshirish, kreativ va innovatsion loyihalarni rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlikning ahamiyati ta’kidlandi.

Shuningdek, “Innovation Scholar” ilmiy jurnalining salohiyatini universitetning boy ilmiy-tadqiqot resurslari va professor-o‘qituvchilarning ilmiy maqolalari bilan boyitish, faol xodimlar va talaba-yoshlarni “Ziyoli avlod — millat iftixori” esdalik nishoni bilan taqdirlash, ma’naviy-ma’rifiy loyihalar orqali yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini keng namoyon etishga kelishildi.

Shuningdek, o‘zaro anglashuv memorandumi imzolanib, bilim, ma’rifat va kreativ tafakkur uyg‘unlashgan yangi imkoniyatlarga yo‘l ochildi.

Nordikda zamonaviy pedagogikaning yangi sahifalari

Professor-o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan navbatdagi zamonaviy o‘quv qo‘llanmalar nashrdan chiqdi.

Bu yangi kitoblar bugungi ta’lim ehtiyojlariga javob beradigan muhim ilmiy va metodik manbalardir.

Nashr etilgan qo‘llanmalar:

01 **Информационно-коммуникационные технологии**
D.Sabirova, O.Azizov

02 **Oila pedagogikasi**
F.Islamova

03 **Maktabgacha ta’limda etnopedagogika**
M.Hasanova

04 **Milliy qadriyatlar asosida 5–6 yoshli bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish metodikasi**
D.Mahmudova

Mazkur qo‘llanmalarda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, milliy qadriyatlar va tarbiya uyg‘unligi, raqamli texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish, maktabgacha ta’limning innovatsion metodikalari hamda nazariya va amaliyotni bog‘lovchi metodik tavsiyalar keng yoritilgan.

Ushbu adabiyotlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tavsiyasi asosida nashr etilgani bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Fidoyilar

Xotira kechasi:

Buyuk ma’rifatparvarlar xotirasi e’zozlandi



Nordikda “Fidoyilar” nomli xotira kechasi tashkil etilib, yoshlar uchun o‘ziga xos ma’naviy uyg‘onish darsi bo‘ldi.

Avlodlar uchrashuvida milliy tafakkur, tarixiy xotira va ma’rifatga hurmatni mustahkamlashga ahamiyat qaratildi.

Mazkur kechada o‘z umrini xalq ma’rifati, ilm-fan va pedagogika rivojiga bag‘ishlagan buyuk ma’rifatparvarlar hayoti hamda faoliyati yodga olindi. Ularning jasorati, ilm yo‘lidagi fidoyiligi va millat kelajagi uchun qilgan xizmatlari bugungi yosh avlod uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilayotgani e’tirof etildi.

Bugun taraqqiyot haqida gap ketganda, avvalo, ma’rifat va tarbiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aynan ana shunday fidoyi insonlarning boy merosini anglash va qadrlash esa yoshlarning Vatanga muhabbatini, ilmga hurmatini va ma’naviy mas’uliyatini yanada kuchaytiradi.

Xotira kechasi talabalarning mavzuga doir chiqishlari, mehmon ma’ruzachilarning ibratli nutqlari bilan mazmunli kechdi.

Turizmni ilmiy asosda rivojlantirish –

Taraqqiyotning muhim omili





Yurtimizda turizmni zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy muloqot bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi raisi Abdulaziz Aqqulov, soha mutaxassislari hamda yetakchi professor-olimlar ishtirok etdilar.

“Turizm sohasida davlat, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligi: soha taraqqiyoti va iqtisodiy o‘sish garovi” mavzusidagi uchrashuvda 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan Turizmni rivojlantirish strategiyasi, mamlakat turizmining uzoq muddatli modeli hamda zamonaviy turizm industriyasining global tendensiyalari muhokama qilindi.

Uchrashuvda Xalqaro Nordik universiteti professor-olimlari ham faol ishtirok etdilar. Universitet prorektori Muhammadsiddiq Amonboyev tomonidan turizmni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan qator dolzarb tashabbuslar ilgari surildi.

Xususan:

– turizm sohasidagi amaliy muammolarni ilmiy tadqiqotlar asosida hal etish uchun Turizm qo‘mitasi tomonidan ilmiy loyihalar tanlovini yo‘lga qo‘yish;

– OTM talabalari uchun Turizm qo‘mitasi tomonidan moliyalashtiriladigan Toshkent xalqaro olimpiadasini tashkil etish hamda uni har yili xalqaro miqyosda o‘tkazish, ushbu loyiha orqali dunyo mamlakatlaridan jamoalarni jalb qilish, O‘zbekistonning turizm salohiyatini keng targ‘ib etish, MICE turizmini rivojlantirish va innovatsion yechimlarni shakllantirish taklif qilindi.

Shuningdek, turizm yo‘nalishlariga kirish imtihonlarida tarix fani o‘rniga matematika fanini asosiy fan sifatida joriy etish taklifi ilgari surildi. Tizimdagi qator muammolar sanalib, mazkur tashabbus turizm iqtisodiyoti, menejment va analitik yo‘nalishlarda kuchli bilim bazasiga ega kadrlarni tayyorlashga xizmat qilishi ta’kidlab o‘tildi.

Xalqaro Nordik universitetining ushbu tashabbuslari turizm sohasida ilm-fan, innovatsiya va xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.







“TasIMO-2026” final bosqichi — tog‘lar bag‘rida!

Yurtimizning 134 nafar eng kuchli yosh matematiklari hamda dunyoning 13 davlatidan tashrif buyurgan iqtidor egalari bugun O‘zbekistonda jam bo‘ldilar.

Ertaga — 19-may kuni Bo‘stonliqdagi so‘lim Green Hills Resort maskanida nufuzli olimpiadaning final bosqichiga start beriladi.

Green Hills’da har bir lahza

Yangi challenge

Unutilmas xotira!



TasIMOchilar esa har bir sinovga:

Challenge accepted!

kayfiyatida!





Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi g‘oliblari tantanali taqdirlandilar!



Yurtimiz va dunyoning turli nuqtalaridan kelgan yosh matematiklar o‘z yutuqlari natijasida yurt bayroqlarini sharaf bilan ko‘tarib turibdilar.

Bir necha kunlik qizg‘in bellashuvlar ortda qoldi. Eng munosiblar nomi esa sahnada yangradi.


TOSHKENT XALQARO
MATEMATIKA OLIMPIADAS
2026
TASIM
BAZAVIY HISOBLASH MIQDORINING
16 BARAVARI
MIQDORIDAGI PUL MUKOFOTI BERILADI
unicef
Karelia
UNIVERSITY OF APPLIED SCIENCES


SILVER MEDAL
MATNAZAROV
SULAYMON
Uzbekistan
SILVER MEDAL
OLEINIKOV
ALEXANDER
Kazakhstan
SILVER MEDAL
RASULBEK
GAFFOROV
Uzbekistan
SILVER MEDAL
ALTYNBEK
YERRASSYL
Kazakhstan
SILVER MEDAL
ARZIQULOV
ADHAM
Uzbekistan
Kazakhstan

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

INTILGANGA TOLE YOR!

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

Xalqaro Nordik universiteti missiyasi – zamonaviy bilimlarni berish orqali talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularni raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishini ta’minlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali jamiyat muammolarini yechishga ko‘maklashish, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va globallashuv sharoitida ta’lim eksportini oshirishdan iborat!



BIZNI KUZATING

@nordic_edu

www.nordicuniversity.org